

## **IRODA RIVOJLANISHINING XORIJIY OLIMLAR TOMONIDAN O'RGANILGANLIGI HOLATI**

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi, Jizzax davlat pedagogika universiteti  
magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iroda muammosining xorijiy olimlar tomonidan o'rganilishiga oid fikrlar mavjud.

**Kalit so'zlar:**iroda, irodaviy siflatlar, ustanovka, shaxsning irodaviy faoliyati.

Iroda tushunchasi psixologiya fanida ko'p asrlik o'rganishlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan hozirgi kunda o'rganishni talab qiladigan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Iroda borasidagi ma'lumotlar yetarli emasligi bizning tasavvurimizda iroda borasida muhim bir ishlar ilmiy tadqiqotlar olib borilmagandek tuyuladi. Hozirgi kundagi ilmiy izlanishlar avvalgi yillarga nisbatan kamaygandek. Iroda muammosini quyidagi yo'nalishlarda o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin:

- Psixologiya fanida iroda muammosining o'rganilganligi
- Xorijiy olimlar tomonidan maktab o'quvchilarida iroda rivojlanishining o'rganilganligi
- O'zbekiston olimlari tomonidan maktab o'quvchilarida iroda rivojlanishining tadqiq etilganligi.

Iroda haqidagi bahs munozaralar antik davrlardayoq yuzaga kelgan. Aristotelning nazariyasida ilk bor voqelik iroda muammosi doirasida talqin etilgan bo'lib iroda insonning o'zida bor harakatni tug'ulishi sifatida tushuntiriladi. Iroda muammosiga harakatning tug'ulishi konteksti sifatida qarash eng avvalo uning qo'zg'atuvchanlik funksiyasini o'zida aks ettiradi.

Odatda psixologiyada ixtiyorsiz harakatlar anglanilgan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl, ustanovka va shu kabilarning ichki turtki ta'sirida paydo bo'lishi natijasida ro'yobga chiqariladi. Mazkur istak va uning boshqa shakllari impulsiv (lotincha impulsus ixtiyorsiz qo'zg'alish ma'nosini

anglatadi) xususiyatiga ega bo'lib, inson tomonidan anglanilmaganligi uchun ma'lum ob'ektga qaratish yuzasidan rejalashtirilmagan, hatto ko'zda tutilmagan bo'ladi. Insonning favquloddagi vaziyatda yuzaga keladigan sarosimalik affekti, dashshat, hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish va shunga o'xshash boshqa mohiyatli, har xil shakldagi xatti-harakatlari ixtiyorsiz turkumdagilarga yorqin misoldir. Undagi atamalar ma'nosi, aks etish imkoniyati bundan oldingi hissiyot to'g'risidagi ma'lumotlarda keng ko'lamda bayon qilingan.

Boshqa kategoriyada taalluqli harakatlar ixtiyoriy harakatlar deb nomlanib, ular maqsad ko'zlash, maqsadni anglashni va uni amalga oshirishni ta'minlovchi operatsiyalar, usullar va vositalarni shaxs o'z miyasida tasavvur qilishni, samaradorligini taxminan basholashni taqozo etadi. O'zining mohiyati bilan tafovutlanib turuvchi ixtiyoriy harakatlarning alohida guruhini irodaviy harakatlar deb ataluvchi turkum tashkil qiladi.

Psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda ularga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi".

Shaxsning irodaviy faoliyati o'z oldiga qo'ygan anglangan maqsadlarni bajarishdan, amalga oshirishdan iborat sodda shakldagi harakatlarning majmuasidan iborat emas. Zo'r berishni taqozo etmaydigan ish harakati (masalan, shkafdan choynak olish, sochiqni qoziqqa ilish va hokazolar) bilan irodaviy faoliyat tarkiblari o'rtasida keskin tafovut mavjud. Irodaviy faoliyat o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda shaxs o'z oldiga qo'ygan va unga muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadlariga o'zi uchun kamroq qiymatga molik xatti-harakat motivlarini bo'ysundiradi. Ustivor (etakchi) motivlar qo'shimcha ko'makchi motivlarni muayyan yo'nalishga safarbar qilib, umumiy maqsadga xizmat qildiradi.

Shaxs faolligining har xil ko'rishlari mavjud bo'lib, ular funksional tomondan bir-biridan farqlanadi, lekin iroda inson faolligining alohida o'ziga xos shaklidan iboratligi ajralib turadi. Iroda insonning o'z xatti-harakatlarini (xulq-

atvorini) o'zi boshqarishini, u yoki bu xususiyatli intilish va istaklarini tormozlashni talab qiladi, binobarin, u anglanilgan turlicha harakatlar tizimi mujassam bo'lishini nazarda tutadi. Irodaviy faoliyat moshiyati shunda ko'zga tashlanadiki, bunda shaxs o'zini o'zi boshqaradi, o'zini qo'lga oladi, o'zining xususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, shatto zarurat tug'lsa, u holda ularni tamoman yo'qotadi ham. Irodaning paydo bo'lishi bosh omili-inson tomonidan faoliyatning turli tarkiblarining irodaviy harakatlarning tizimli tarzda tatbiq etilishi bunday ish-harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi shaxsning faolligidir. Irodaviy faoliyat shaxs tomonidan keng qo'lamda anglanilgan va ruhiy jarayonlarni amalga oshirish xususiyati bo'yicha irodaviy zo'r berishni talab qiladigan aqliy amallarni taqozo etadi. Bunday aqliy amallar favquloddagi vaziyatni baholash, kelgusida amalga oshirishga mo'ljallangan harakatlar uchun vositalar va operasiyalar tanlash, maqsad ko'zlash va unga erishishning usullarini saralash, ularni tatbiq etish uchun muayyan qaror qabul qilish kabilar bo'lib hisoblanadi

Iroda - tashqi va ichki to'siqlarni engib o'tishdagi harakatlarni tanlash qobiliyatida namoyon bo'ladigan shaxsning o'z xatti-harakati va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish, aqliy aks ettirish shakli. "Iroda" tushunchasi ham psixik jarayon, ham boshqa bir qator asosiy psixik jarayonlar va hodisalarning jihati sifatida ham, shaxsning o'z xulq-atvorini o'zicha boshqarishning o'ziga xos xususiyati sifatida qaraladi.

Hozirgi vaqtda psixologiya fanida iroda to'g'risida yagona nazariyasi mavjud emas, shunga qaramay ko'plab olimlar iroda to'g'risidagi yaxlit ta'limotni terminologik aniqligi va bir ma'noliligi bilan ishlab chiqishga urinmoqdalar.

"E.P. Ilyin ta'kidlaydiki, hozirgi kunga qadar "iroda" tushunchasini turlicha talqin qiluvchi bir qancha ilmiy yo'nalishlar shakllangan: iroda - ixtiyoriylik, iroda - tanlash erkinligi, iroda - xulq-atvorni o'zboshimchalik bilan boshqarish, iroda - motivatsiya, iroda - irodaviy tartibga solish"

Xulosa qilib aytganda iroda muammosi ko'p o'rganilishiga qaramay o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жуков, М.Н. Подвижные игры: учеб. для студ. пед. вузов /М.Н. Жуков - М.: «Академия», 2000. -160 с.
2. Зимин П.П. Воля и ее воспитание у подростков. – Т: Узбекистан, 2001. – 145с.
3. И.Хайриев Ирода психологияси Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2010
4. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции М.: 1998. – 218с.
5. Иванников В.А., Эйдман Е.В. Структура волевых качеств по данным самооценки Психологический журнал. М: 1990. №3. – ( с 39-50)
6. Иванов П.И., Зуфарова М.Е. Умумий психология. Тошкент, 2008
7. Ильин Е.П. Психология воли. СПб: Питер, 2009. – 324с.
8. Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>
9. Majidov, J. B. (2020). Some characteristics of relationships in football teams. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1981–1988. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.01488.3>
10. Majidov, J. (2021). KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3074>
11. Jasur Majidov, [СВОЕОБРАЗНОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В СИСТЕМЕ “ТРЕНЕР-СПОРТСМЕН” В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ФУТБОЛЬНЫХ КЛУБАХ](#), *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education*

12. Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси ва замонавий таълим*, (3). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>
13. Ж.Мажидов. ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР – СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <https://scienceweb.uz/publication/865>
14. Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI OʻRNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 608-613.
15. Эшонкулова, Х. (2022). ИҚТИДОРЛИК МУАММОСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси ва замонавий таълим*, 2(7). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5762>
16. Majidov, J. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИГА ХОС СУИЦИДАЛ ХУЛҚНИНГ АЙРИМ САБАБЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси ва замонавий таълим*, 2(7). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5766>
17. Majidov, J. (2021). ЁШЛАРНИНГ ОИЛАВИЙ ҲАЁТ ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИ ВА ОИЛАВИЙ ҲАЁТДАН ҚОНИҚИШ УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси ва замонавий таълим*, 1(1).
18. Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
19. Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
20. Мажидов Жасур, & Ҳамдамов Ҳайдарбек. (2022). ШАХСГА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Involta*

Scientific Journal, 1(7), 138–148. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255>

21.Ziyadullayeva, M., & Majidov, J. (2022). KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(28), 32-35.